

RESURSTEJAMKOR TEXNOLOGIYA ASOSIDA YANGI TARKIBIY TUZILISHLI KIMYOBOP TO'QIMALARINI ISHLAB CHIQUARISH

Komilov Akhmadjon Qalandar o'g'li

Urganch davlat universiteti

Kimyoviy texnologiyalar fakulteti

Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *To'qimaning iplarini chiziqiy zichligini keskin farq qilish natijasida to'qimada bo'rtma yo'llar shakllanadi. Maqola gazlamalar ishlab chiqarish uchun oldindan rejalashtirilgan ma'lum qonuniyatlar asosida notekis ip ishlab chiqarib, undan mato olishga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlari: *to'qima, bezak, to'qimachilik, naqsh, chiziqiy zichlik, to'quv dastgohi.*

Abstract: *As a result of a sharp difference in the linear density of the threads of the tissue, embossed paths are formed in the tissue. The article is devoted to the production of uneven yarn and the production of fabric from it on the basis of certain pre-planned laws for the production of fabrics.*

Keywords: *weaving, decoration, textile, pattern, linear density, weaving loom.*

KIRISH

O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 fevraldagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4186 son qarori, 2017 yil 14 dekabrda PF -5285 son farmoni, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmonlari bo'yicha respublika to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, modernizatsiya qilishning strategik muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarini amalga oshirish hisobiga yuqori texnologiyali yangi ish o'rinlarini yaratish, korxonalarini texnik va texnologik yangilash, ilg'or "klaster modeli"ni joriy etishga qaratilgan tarkibiy qayta tashkil etishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

ALABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Dunè to'qimachilik amaliyotida gazlamalarga badiiy bezak berishni ikkita usuli mavjud. Ular quyidagilar :

1-to'quv dastgohida xom gazlama ishlab chiqarib, so'ngra pardozlash jaraènida turli sidirg'a rangga bo'yash eki naqsh tushirish usuli;

2-to'quv dastgohida bevosita bezak berib, tayèr gazlama ishlab chiqarish. Ikkinchi usulda gazlama ishlab chiqarishda turli yo'nalishlari mavjud –

o'rilishlar hisobiga, iplarning ranglari hisobiga, murakkab to'qimalarda qatlamlar iplarini ma'lum tartibda almashtirish hisobiga, to'qimanitanda va arqoq bo'yicha zichliklarini o'zgartirish hisobiga, tanda va arqoq iplarining tarkibi hisobiga bezak berish.

Bu usulni turli tolalardan olinadigan mahsulotlarda turlicha qo'llanilishi mumkin. Masalan, klassik tabiiy ipak gazlamalarni krep guruhida tandasini xom ipakdan arqog'ini esa katta buram berilgan krepdeshinlarda donadorlik (zernistost') jilolar olinadi. Bu donadorlik to'qima shakllanishida arqoq iplarini galma-gal Z yo'nalishdagi va S yo'nalishdagi buramlar berib (2000-2500 buram/m) pardozlash jaraenida mato qaynatilib seretsinni yuvish natijasida iplarni teskariga buralishi to'qimani donador bo'lishini ta'minlaydi.

To'qimaning tanda va arqoq iplarini chiziqiy zichligini keskin farq qilish natijasida to'qimada bo'rtma yo'llar shakllanadi. Agar tanda tekisi bir necha bor arqoq teksidan kichik bo'lsa, mato sirtida bo'ylama yo'llar shakllanadi. Bu bizning milliy gazlamamiz beqasamlarda keng qo'llanilgan. Ularning tandalari tabiiy eki sun'iy ipak bo'lib (ingichka), arqog'i esa yo'g'on ipdan to'qiladi. Agar tanda va arqoq iplarining farqi teskari bo'lsa, ya'ni tanda tekisi bir necha bor arqoq teksidan katta bo'lsa, ko'ndalang yo'l- yo'l naqshlar shakllanadi.

To'qimachilik sanoati — turli xildagi o'simlik tolalari, jun va sun'iy sintetik tolalardan turli gazlamalar, ip va boshqa maxsulotlar ishlab chiqaruvchi yengil sanoat tarmog'i. To'qimachilik sanoati tarkibiga to'qimachilik xom ashyosini dastlabki qayta ishlash, ip gazlama, zig'ir, kanop, jut tolasidan gazlama, shoyi, jun gazlama, noto'qima materiallar, to'r to'qish, to'qimachilikattorlik, trikotaj, kigiznamat bosish sohalari kiradi. To'qimachilik sanoati mahsulotlari kiyimbosh va payabzal ishlab chiqarishda, shuningdek, mebel, mashinasozlik sanoati va boshqalarda ishlatiladi. O'zbekistonda To'qimachilik sanoati yengil sanoatning yetakchi tarmog'ini tashkil etadi.

To'qimachilik buyumlari ishlab chiqarish qadim zamonlarda paydo bo'lgan. G'o'za ekish, qo'lda ip tayyorlash va gazlama to'qish Hindiston, Xitoy, Misr va O'rta Osiyoda mil.dan bir necha asr ilgari ma'lum bo'lgan. To'qimachilik sanoati mashinalashgan ishlab chiqarishga birinchi bo'lib o'tgan sanoat tarmogidir. Yevropada 18-asrning 2yarmidagi sanoat to'ntarishi shu tarmoqdan boshlangan.

O'zbekistonda To'qimachilik sanoati uzoq tarixga ega. O'rta ayerlarda mahalliy hunarmandlar tayyorlagan atlas, beqasam, baxmal, banoras, zandanachi, olacha kabi mahsulotlar uzoq mamlakatlarda mashhur bo'lgan, Buyuk ipak yo'li orqali Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga chiqarilgan. Lekin mayda tarqoq hunarmandchilikni birlashtirib sanoat asosini yaratish va gazlamalar ishlab chiqarish esa faqat 20-asrning 20-yillaridan boshlandi.

1926-yilda Farg'ona to'qimachilik fabrikasining 1navbati ishga tushirildi (10000 urchuq va 300 to'quv dastgohi), 1932-yilga kelib uning 2 va 3navbatlari ham qurildi

(19900 urchuq, 906 to'quv dastgohi). 1930-yilda Samarqand shoyi to'qish fabrikasi ishlay boshladi. 1932-yildan Toshkent to'qimachilik ktini qurish boshlandi. 1935-yil bu kt gazlama ishlab chiqara boshladi (33630 urchuq, 1152 dastgoh).

To'qimachilik sanoati mashinalari, dastgohdari bazasini yaratishda 40-yillarda qurilgan "Toshtekstil mash" zining hissasi katta bo'ldi. Urushgacha bo'lgan yillarda Qo'qon ip yigiruvpaypoq to'quv kti, Farg'ona, Toshkent trikotaj buyumlari fabrikalari, Marg'ilon shoyi kti, Samarqand yangi trikotaj fabrikasi barpo etildi. Urush yillarida (1941— 45) Toshkentga RostovDon shahridan trikotaj, Leningraddan ip, Marg'ilonga Ijevskdan shoyi to'qish, Farg'onaga yigiruvto'quv fabrikasi ko'chirib keltirildi. Natijada O'zbekistonda To'qimachilik sanoati o'sish sur'atlari tezlashdi. 50-yillarda yangi korxonalarini qurish, ishlab turgan korxonalarini kengaytirish davom etdi. 60-yillar o'rtalarida Namangan kastyumbop va shtapel gazlamalar kti qurila boshlandi. Toshkentda "Malika" trikotaj ishlab chiqarishkti, Buxoro to'qimachilik kombinati (1973— 76), Namangan noto'qima materiallar ishlab chiqarish birlashmasi (1974), Pop noto'qima materiallar kombinati (1977), Andijon ip gazlama ktining 1navbati (1981), Xiva gilam kombinati qurib ishga tushirildi. 80-yillarda yirik to'qimachilik korxonalarida bir qancha filiallar ochildi. Shuningdek, Paxtaobod, Chuvama, Qo'rg'ontepa, Marqamatda hamda G'ijduvon va Vobkentda fabrikalar qurilib ishga tushirildi. Filiallarda ham ishlab chiqarish texnologik siklining tugal bo'lishiga erishildi.

90-yillarda O'zbekiston To'qimachilik sanoati yangi sifat o'zgarishlari bosqichiga o'tdi. Respublikaning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalari tobora kengayib, chet ellik sheriklar bn barpo etilgan qo'shma korxonalar soni ko'payib bordi.

O'zbekiston To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri jahon bozoriga paxta tolasini chiqarish emas, balki jahon bozorida raqobatbardosh ip gazlama ishlab chiqarishni ko'paytirishdan iborat strategiya tanlandi. Shu maqsadda AQSH, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlar firmalari bn ip gazlama ishlab chiqaradigan yangi qo'shma korxonalar tashkil etildi. Korxonalarini chet el ilg'or to'qimachilik texnologiyasi bn jihozlash boshlandi. 1993—94 ylarda "Buxoroteks" aksiyadorlik jamiyatiga Shveysariya, Germaniya uskunalarini o'rnatildi. 1994-yilda Turkiyaning "Yazeks" korporatsiyasi bn hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanida to'liq texnologik siklli to'qimachilik majmui ishga tushirildi.

1995 — 2003-yillarda O'zbekiston To'qimachilik sanoatiga kiritilgan xorij sarmoyalari 519,89 mln.dan ortiqroq AQSH dollarini tashkil etdi, sho' jumladan, Janubiy Koreyaning "Kabul tekstaylz" kompaniyasi kiritgan investitsiya 186 mln., Turkiyaning "Timi", "Tipash" kompaniyasi 75 mln. (Namangandagi "Kosonsoy—Tikmen" kastyumbop va paltobop gazlamalar, jun choyshab va qo'lda to'qiladigan gilamlar uchun yigirilgan ip), "Bursel" firmasi 52,9 mln. (Chinoz to'qimachilik kti), "Astop" firmasi 40,3 mln ("Asnamtekstil"), Yaponiyaning "Marubeni" firmasi 60 mln. ("Silk Road", Namangan) AQSH dollaridan iborat bo'ldi. O'zbekiston To'qimachilik

sanoatida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish qajmi tobora o'sib bormoqda. O'zbekiston To'qimachilik sanoatida 2003-yilda 453,3 mln. m² gazlama, shu jumladan, 415,2 mln.m² ip gazlama, 167 mln. juft paypoq, 28,6 mln. dona trikotaj mahsulotlari ishlab chikarildi.

Chet mamlakatlarda To'qimachilik sanoati Hindiston, Xitoy, AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, GFR, Misrda ayniqsa taraqqiy etgan. Rivojlangan mamlakatlar To'qimachilik sanoatida birinchi o'rinni paxta tolasidan ip gazlama ishlab chiqarish egallaydi, jun va shoyi gazlamalar ishlab chiqarish keyingi o'rinlarda turadi.

XULOSA

Ishlab chiqarilgan tajribaviy to'qima namunasining mustahkamlik ko'rsatkichlari shu guruh gazlamalarini me'èriy ko'rsatkichlariga to'g'ri kelyapti. Tanda bo'yicha yangi namunaning uzilish kuchi -306 N bo'lib, arqoq bo'yicha uzish kuchiga nisbatan ancha katta. Arqoq ipining o'zgaruvchan tuzilishi va 1/3 arqoq sarja o'rilishining qo'llanilganligi gazlamaning sirt ko'rinishida «muar» effektini hosil qilish.

REFERENCES

1. К.Э. Разумеев, Н.Б.Юсупова, Д.Т.Назарова, С.Ш.Ташпулатов,Ж.Е.Данадилов, З.Б. Онгарбаева. Улучшения качества костюмных хлопчатобумажных тканей в зависимости от её опорной поверхности // Известия вузов. Технология текстильной промышленности. Иваново, 2019, № 5 (383). –С.85-88.
2 N.B.Yusupova., Nazarova D.T., Khamrayeva S.A., Valiyeva Z.F. Evaluation of the Structure the Costume Fabric over its Surface // International Journal of AdvancedResearch in Science, Engineering and Technology. ISSN: 2350-0328.Индия, 2018, t. 6738-6742
3.Olimboyev, Erkin. "To'qimachilik sanoati" O'zME. T-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil